




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-iyul)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga etkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 3110,2 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 661,3 mln. AQSh dollariga yoki 27,0 % ga ko‘paydi.






TSAda eksport hajmi 1152,4 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 133,0 %) va import hajmi 1957,8 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 123,7 %) yetdi. Hisobot davrida 805,5 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2020- yil yanvar-iyulga nisbatan, %da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)


| Davlatlar nomlari | TSA | Eksport | Import | Ulush, % da |
|-----------------------|-------|---------|--------|-------------|
| Rossiya Federatsiyasi | 692,7 | 172,2 | 520,5 | 22,3 |
| Turkiya | 644,1 | 515,6 | 128,6 | 20,7 |
| Qozog'iston | 575,5 | 105,0 | 470,6 | 18,5 |
| Xitoy | 350,3 | 70,3 | 280,0 | 11,3 |
| Braziliya | 96,1 | 0,0 | 96,1 | 3,1 |
| Koreya Respublikasi | 91,2 | 9,5 | 81,7 | 2,9 |
| Belorus | 84,5 | 8,8 | 75,7 | 2,7 |
| Ukraina | 59,0 | 26,5 | 32,5 | 1,9 |
| Germaniya | 46,2 | 8,0 | 38,3 | 1,5 |
| Afg'oniston | 45,0 | 45,0 | 0,0 | 1,4 |
| Tojikiston | 38,4 | 34,9 | 3,6 | 1,2 |
| Italiya | 37,4 | 5,8 | 31,6 | 1,2 |
| Qirg'iz Respublikasi | 36,3 | 24,8 | 11,6 | 1,2 |
| Qatar | 28,9 | 28,8 | 0,0 | 0,9 |
| Singapur | 24,2 | 23,7 | 0,5 | 0,8 |
| Niderlandiya | 22,7 | 14,8 | 7,9 | 0,7 |
| Irlandiya | 21,7 | 0,0 | 21,7 | 0,7 |
| Eron | 15,6 | 1,9 | 13,7 | 0,5 |
| Hindiston | 15,4 | 3,9 | 11,5 | 0,5 |
| Litva | 14,4 | 0,4 | 14,0 | 0,5 |



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,6 %ni hamda o‘shish sur‘ati 2020- yilning shu davriga nisbatan 133,9 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilning yanvar- iyul oylarida 53,9 %ni, 2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 51,4 %ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 121,1 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2021- yil yanvar-iyul, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Qatar va Singapur bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog‘iston va Xitoy davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-iyul)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-iyul oylari yakuni bilan 1152,4 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 133,0 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,5 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (11,0 %), turli xil tayyor buyumlar (7,6 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,4 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,5 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (1,6 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-iyul)

| Tarkibi | Mln. AQSh dollari | | | Umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|--|-------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami eksport | 1152,4 | 382,3 | 770,1 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 127,2 | 76,5 | 50,7 | 11,0 | 20,0 | 6,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 1,5 | 1,4 | 0,1 | 0,1 | 0,4 | 0,01 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) | 50,6 | 30,9 | 19,7 | 4,4 | 8,1 | 2,6 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 1,0 | 0,1 | 0,9 | 0,1 | 0,01 | 0,1 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar | 40,7 | 27,6 | 13,1 | 3,5 | 7,2 | 1,7 |
| Sanoat tovarlari | 819,7 | 150,0 | 669,7 | 71,2 | 39,3 | 86,9 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 18,8 | 10,7 | 8,1 | 1,6 | 2,8 | 1,1 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 87,3 | 84,3 | 3,0 | 7,6 | 22,0 | 0,4 |
| Xizmatlar | 5,6 | 0,8 | 4,8 | 0,5 | 0,2 | 0,6 |






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-iyun)

2021-yilning yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning mos davriga nisbatan, hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

| Tarkibi | 2020- yilning shu davriga nisbatan, % da | | |
|--|--|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami | 133,0 | 121,3 | 139,6 |
| shu jumladan: | | | |
| oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 111,3 | 94,6 | 151,6 |
| Ichimliklar va tamaki | 107,8 | 119,7 | 35,3 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) | 103,6 | 144,7 | 71,6 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 56,3 | 29,7 | 59,3 |
| Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar | 129,7 | 115,9 | 172,6 |
| Sanoat tovarlari | 142,1 | 135,5 | 143,7 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 109,9 | 119,6 | 99,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 125,7 | 125,3 | 137,3 |
| Xizmatlar | 96,5 | 105,3 | 95,2 |



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Afg'oniston, Tojikiston va Qatar hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 971,7 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 84,3 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 91,7 mln. dollar qiymat ega 196,7 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 10,3 % o'sgan, naturada – 27,2 % ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 57,1 mln. AQSh dollariga teng 150,3 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 40,9 % ga o'sgan), shuningdek 27,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 33,8 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 76,0 %ga teng).

2021- yil yanvar-iyul, mln. AQSh dollari



Meva va rezavorlar
33,8 ming tonna
27,8 mln. AQSh dollari



Uzum
3,6 ming tonna
3,4 mln. AQSh dollari



Yeryong'oqlar
2,1 ming tonna
2,6 mln. AQSh dollari



Sabzavotlar
150,3 ming tonna
57,1 mln. AQSh dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-iyul oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 83,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 7,3 %ini tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-iyul)


Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-iyul oylari mobaynida import hajmi 1957,8 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 123,7 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (26,7 %), sanoat tovarlari (17,2 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (22,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (13,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.



*XSST BO'YICHA
IMPORT TARKIBI
(mln. AQSH dollari)*





**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-iyul)**

| Tarkibi | mln. AQSh dollari | | | umumiy hajmga nisbatan, % da | | |
|---|-------------------|----------------|------------------|------------------------------|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami import | 1957,8 | 1129,4 | 828,4 | 100,0 | 100,0 | 100,0 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 270,1 | 122,3 | 147,8 | 13,8 | 10,8 | 17,8 |
| Ichimliklar va tamaki | 5,5 | 5,2 | 0,3 | 0,3 | 0,5 | 0,03 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) | 448,2 | 431,5 | 16,7 | 22,9 | 38,2 | 2,0 |
| Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar | 66,1 | 65,2 | 0,9 | 3,4 | 5,8 | 0,1 |
| Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar | 49,8 | 44,6 | 5,2 | 2,5 | 3,9 | 0,6 |
| Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar | 146,1 | 45,5 | 100,6 | 7,5 | 4,0 | 12,1 |
| Sanoat tovarlari | 337,5 | 237,1 | 100,4 | 17,2 | 21,0 | 12,1 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 523,7 | 155,5 | 368,2 | 26,7 | 13,8 | 44,4 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 83,1 | 16,0 | 67,1 | 4,2 | 1,4 | 8,1 |
| Boshqa tovarlar | 9,3 | 3,8 | 5,5 | 0,6 | 0,4 | 0,9 |
| Xizmatlar | 18,4 | 2,7 | 15,7 | 0,9 | 0,2 | 1,9 |

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (38,2 %) va sanoat tovarlari (21,0 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (44,4 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,8 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-iyul, % hisobida)

| Tarkibi | 2020- yilning shu davriga nisbatan, % da | | |
|---|--|----------------|------------------|
| | Jami | MDH davlatlari | Boshqa davlatlar |
| Jami | 123,7 | 138,8 | 107,8 |
| shujumladan: | | | |
| Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar | 135,5 | 76,8 | 3,7 m. |
| Ichimliklar va tamaki | 199,3 | 2,1 m. | 92,6 |
| Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) | 180,6 | 198,0 | 55,2 |
| Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar | 102,2 | 101,6 | 175,4 |
| Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar | 107,3 | 125,8 | 47,6 |
| Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar | 134,6 | 160,6 | 125,4 |
| Sanoat tovarlari | 118,8 | 130,5 | 98,2 |
| Mashinalar va transport asbob-uskunalari | 101,3 | 155,8 | 88,3 |
| Turli xil tayyor buyumlar | 113,2 | 117,1 | 112,4 |
| Boshqa tovarlar | 93,1 | 69,7 | 122,1 |
| Xizmatlar | 65,4 | 50,3 | 68,9 |





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-iyul)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Belorus hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1653,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,4 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(71) 202-86-59